

---

## VILOYAT HOKIMINING TABRIKNOMASI VA SOVG'ALAR TOPSHIRILDI



Sharqona yangi yilning boshlanishi, mehr-oqibat ramzi, bag'rikenglik, saxovat, tinchlik va farovonlik ifodasi, asl milliy, eng ardoqli bayram bo'lmish Navro'zi olamning tashrifi qalblarimizga olam-olam quvonch baxsh etmoqda. Bugun bayram arafasida milliy qadriyatlarimiz davom ettirilib yoshi ulug'lar, bemorlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlar holidan xabar olinmoqda.



Bugun Qo'shtepa tumani hokimi I.Novikov G'ishtmon mahalla fuqarolar yig'ini Badish qishlog'ida istiqomat qiluvchi 111 bahorni qarshilagan Xolinsa ona Qo'shaqovaning xonadonida bo'lib, ulug' ayyom bilan qutladi. Xolinsa onaga viloyatimiz rahbari yo'llagan tabriknomani o'qib eshittirdi va hokimlikning sovg'alarini, oziq ovqat to'plamlarini topshirdi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2021-03-19 19:34:56